| | | |
|---|---|---|
| | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI** | |

| | |
|---|---|
| Ro'yxatga olindi:<br>№ BD60230100-2.03.<br>2021- yil _____ | **"TASDIQLAYMAN"**<br>SamDU rektori:<br>R.I.Xalmuradov<br>2021 - yil "___" _____ |

# ZAMONAVIY SHE'RIYAT POETIKASI FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar soha |
| **Ta'lim sohasi:** | 320000 – Gumanitar fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili |

Fan dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2021-yil 25-may 10-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.

**Kafedra mudiri** **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (22-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

**Fakultet uslubiy kengashi raisi** **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

**Fakultet ilmiy kengashi raisi** **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor:** **prof.A.S.Soliyev**

| Fan/modul kodi<br>*ZSHPT4006* | O'quv yili<br>*2024-2025* | Semestr<br>7 | ECTS – Kreditlar<br>6 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 |

| | Fan nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Umumiy soat (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Zamonaviy she'riyat poetikasi | 105 | 75 | 180 |

2. **I. Fanning mazmuni**

«Zamonaviy she'riyat poetikasi» fani ojrqali talabalar she'riy janrlar haqida yetarli ma'lumotga ega bo`ladi. Ular zamonaviy shoirlar ijodi, adabiiy merosini janriy o`ziga xosliklarini aniqlaydi. She'riy merosni janrlarga ajrata oladi. Bu orqali talabada she'r ilmini o`rganish ko`nikmasi shakllanadi. Shu bilan birgalikda talabada har bir shoir she'riyatidan yodlangan she'rlar uning xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. She'r mazmunini tushunishda, she'riyatning g`oyaviy tomonlarini ahglashda, she'r san'atlari, qofiyalanish tuzilishi va boshqa jihatlarini o`rganadi. Fan ana shunday masalalari bilan dolzarblik kasb etadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: She'riy janrlar tarixi.** Kirish. Hozirgi she'riyatning janr xususiyatlarini belgilovchi yetakchi tamoyillar. O`zbek mumtoz she'riyati janrlarining ?ozirgi adabiyot janrlariga ta'siri.

Jahon adabiyotidagi she'riy janrlarning o`zbek adabiyotiga ta'siri masalasi. Janr adabiyotning o`zak masalalaridan biri ekanligi. hozirgi she'riyatning ilk janrlari kimning qaysi asarlarida uchraydi. Mazkur janr xususiyatlarining o`rganishning muhim ahamiyati. Janrlar adabiy atama sifatida. Janr turlarini belgilovchi asosiy omillar.

**2-mavzu: Yangi poetik janrlar.** Yangi poetik janrlarning o`zbek adabiyotida o`rganilishi. She'riy janrlarning o`zbek adabiyotiga kirib kelishi. Novator shoirlar ijodida janrlarning qo`llanilishi. Janrlar tasnifi. Adabiyotshunoslik fanida yangi janrlar moslashuvi masalasi. Elegiya, invektiva, uchchanoq, qayirma, xokku va boshqa janrlarning nazariy qoidalarini o`rganish. Mazkur janrlarning jahon adabiy jarayonida qo`llanilish holatlari. Janrlararo o`zaro ta'sir. R. Parfi, Faxriyor, X. Davron ijodida yangi janrlar. She'riy janrlardan namunalar.

**3-mavzu: Sonet janri to`g`risida.** Sonet janrining paydo bo`lishi. Italiyada sonet janrining o`ziga xos ahamiyati. Sonetning muhim, qat'iy qoidalarga asoslanishi. Sonet janrining barmoq vaznidagi she'rlarga nisbatan o`xshash va farqli jihatlari. Mazkur janrning qofiyalanish tizimi. To`rt va uch misra bandlarining sonetda tutgan o`rni. Usmon Nosir she'riyatida sonet. R. Parfi, Faxriyor she'riyatida sonetning o`ziga xos ko`rinishlari. B. Boyqobilovning sonetlar guldastasi turkumi. Sonet janrining o`zbek adabiyotida tutgan o`rni.

**4-mavzu: Bugungi she'riyatda to`rtliklar va uchliklarning o`ziga xos xususiyatlari.** To`rtlik janri tarixi. Mahmud Koshg`ariy va Yusuf xos hojib asarlarida to`rtlik janri. To`rtlik janrining mumtoz ko`rinishida mavzu rang-barangligi. Uchlik janri tarixi. Italiya adabiyotida uchliklarning o`rni. Sharq adabiyotida musallas janri. Janrning tarixiy ko`rinishlarida qofiyalar tizimi. Anvar Obidjon uchchanoqlari mustaqil janr. Jahon uchlik janrlari, musallas, uchchanoqlar orasidagi muhim farqlar. Aruz va barmoq tizimidagi uchliklar. To`rtlik va ruboiylar o`rtasidagi farqlar. Har ikkala janrning o`zbek adabiyotida o`rganilishi. Mazkur janrlarda ijod qilgan shoirlar mahorati.

**5-mavzu: G`azal janrining bugungi kundagi ahamiyati.** G`azal janri tarixi. Arab adabiyotida qo`llanilgan janrning ilk ko`rinishlari. fors - tojik adabiyotida g`azal janri. Ilk o`zbek adabiyotida g`azal janrining ko`rinishi. Xofiz Sheroziy va Sa'diy Sheroziy ijodida g`azal janrining ahamiyati. Alisher Navoiy g`azal mulkining sultoni. Erkin Vohidov zamonaviy g`azal ustasi. G`azal janrining ikkinchi hayoti. G`azal janri Mustaqillik mafkurasida. Sirojiddin Sayyid, Chorsham', Mahmud Toyir ijodida g`azal janri. Janrning o`ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy she'riyatda tutgan o`rni.

**6-mavzu: Lirikada sarbast va oq she'r.** Erkin she'r sistemasi. Sarbast va uning tarixi bilan bog`liq tushunchalar. O`zbek adabiyotida ilk Qo`llanilgan janr imkoniyatlari. XX asr boshlarida she'riy taraqqiyot. R. Parfi ijodida sarbast janrining ahamiyati. G`arb va Sharq adabiyotida o`zaro ta'sirdorlik. Erkin she'r sistemasining bosh qonuni. H. Olimjon she'riyatida sarbast. So`zlardagi mantiq urg`usinig kuchayib borishi. Oq she'r tarixi. Uning o`zbek adabiyotidagi o`rni. A. Oripov ijodida oq she'r. Jahon adabiyotida oq she'rning ko`rinishlari. O`zbek mumtoz adabiyotida harora she'r. Uning qofiyalanish tizimi. Oq she'r va uning mumtoz namunalari. Bugungi o`zbek adabiyotida oq she'rda ijod qilayotgan shoirlar haqida ma'lumot. Oq she'r - toq she'r.

**7-mavzu: She'riyatda modernizm.** Modernizm atamasining vujudga kelishi. Fransiyada modern adabiyotini paydo bo`lishida davr ehtiyoji. Modernizm XX asr jaholatiga qarshi. Modernizmdagi dastlabki nasriy asarlar. Tahlil. Talqin. Absurd adabiyot ta'rifi. Modernistik she'riyat haqida tushuncha. A. Qutbiddin, B. Ro`zimuhammad, Faxriyor ijodida modernistik ko`rinishlar. O`zbek

adabiyotida(she'riyatida) modernizmning o`ziga xos xususiyatlari. M. Prust, A. Kamyu, J. Joys, Eliot, F. Kafka yangi oqim va yo`nalishlarga mansub ijodkorlar. O`zbek adabiyotshunosligida modernistik asarlarning o`rganilishi.

**8-mavzu: O`zbek she'riyatining o`ziga xos xususiyatlari.** Mustaqillik davr bergan ne'mat. Adabiyot erkinligi – so`z erkinligi. Vatanparvarlik bosh masala. She'riyatda tub o`zgarishlar. Mustaqillik she'riyati haqida tushunchalar. Yoshlar she'riyatida bugungi kun muammosi. R. Parfi, Sh. Rahmon, X. Davron, M. Yusuf she'riyatida vatan madhi. A. Oripov sof milliy shoir. Bugungi she'riyat - inson ko`nglini manzaralashtiradigan, iztiroblar rangini chizadigan, ranglar tovushini beradigan she'riyatdir. Bugungi she'riyat an'anaviy she'riyatdan farq qiluvchi, inson ko`nglini tuyo`usizlik zangidan tozalovchi ma'naviy vosita sifatida.

**9-mavzu: She'riy janrlar sintezlashuvi.** Zamonaviy she'riyatda aralash janrlar ko`plab uchramoqda. Janrlar orasida muhim belgilarning yo`qolib borishi, ularning umuminsoniy g`oyalarni ifodalashga tusqinlik qilmaydi, balki shoir niyatini to`liqroq amalga oshirishga ma'lum bir ma'noda xizmat ham qilishi mumkin.

**10-mavzu: Ana'anaviy janrlarning yangilanishi.** Davr talabi bilan ba'zi janrlar yangilanadi, ba'zi janrlar bashqa bir janr hisobiga boyib boradi. Ba'zi janrlar esa chet el adabiyoti janrlariga o`xshash jihatlarni o`zida namoyon etadi. Bu janrlar iste'dodli shoirlar kashfiyotiga aylanim, ba'zan ular o`zbek adabiyotida yangi janrga ham aylanishi mumkin.

**11-mavzu: Lirikada makon va zamon xususiyatlari.** Lirikada makon va zamon keng o`rganiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu keyingi yillar tadqiqotchiligida alohida ahamiyatga ega. Mavzu yuzasidan makon hamda vaqt she'riyatda semantik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

**12-mavzu: Lirikada esxotologik xronotop poetikasi.** Esxotologiya she'riyatda kam o`rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Lirik asarlarda ko`p uchraydigan jannat, do`zax so`zlari esxotologik makon bilan bog`lanadi. Bu bevosita vaqtni ham talab qiladi. Mif va asotirlar ham bevosita esxotologik ko`rinish oladi.

**13-mavzu: She'riyatda metaforaning ochiq va yopiq shakllari.** Lirikada metafora alohida ahamiyatga ega. Chunki metaforasiz she'riyat bu mavhum, yo`q she'riyatdir. Metafora lirik asarlarda ko`p hollarda ochiq va yopiq hollarda keladi. Ochiq metafora ko`p hollarda voqeband she'riyatda uchrasa yopiq metafora bu ko`proq ramziy she'riyatga xos xususiyatdir.

**14-mavzu: Hozirgi she'riyatda metafizik ko`rinishlar.** Metafizika termini bevosita fizika bilan bog`liq termin hisoblanadi. Metafizika ya'ni fizikadan keyingi degan ma'noni anglatadi. Bu she'riyatda shoir xayoloti bilan o`lchanadigan, uning qalb kechinmalarini tasvir etadigan termindir. She'riyatdagi mavhum hamda yo`q

makonlar ko`pincha metafizika termini bilan tahlilga tortiladi.

**15-mavzu: Nasriy she'rlarning o`ziga xos xususiyatlari.** Nasriy she'riyat M.Yusufning "Qora quyosh" hamda Oybek sheriyati bilan bog`lanadi. Nasriy she'riyat nasrga yaqin turadi. Biroq unda his –tuyg`u yetakchi motivga aylanadi.

**16-mavzu: Lirik janrlarda semantik va simiotik tahlil masalasi.** Lirik janrlarda semantik tahlil hamda semiotik tahlil alohida ahamiyatga. Semantik tahlilda har bir so`zning ma'no jihatlariga urg`u beriladi. Har bir so`zning yuki tahlil qilinadi.

**17-mavzu: Hozirgi she'riyatfda biografik tahlilning o`rni.** Biografik tahlil shoir ijodining butun qamrovini tashkil etadi. Uni bitta yoki bir ikkita she'ri bilan amalga oshmaydi. Uning hayoti, she'r yozilish jarayoni, unga turtki bo`lgan jihatlar qalamga olinadi.

**18-mavzu: Zamonaviy lirikada strukturaviy tahlil masalasi.** She'r tuzilishi, uning poetik qurilishi bevosita strukturaviy tahlillarda amalga oshiriladi. Lekin bir jihati alohida qiymatga ega. Unda misralar hajmidan tashqari har bir so`zning ma'no ottenkalarigacha tahlilga tortiladi.

**19-mavzu: Shavkat Rahmon, Usmon Azim she'riyatida tog` obrazi.** Har bir shoirning ijod na'munalariga qarasak unda eng ko`p qalamga olingan makon joy tasvirlari uchraydi. Bu shoirning ko`p hollarda o`zi tug`ilib o`sgan go`sha bilan bog`lanadi. Masalan U.Azim, Sh.Rahmon she'riyatida tog` obrazi ko`p uchrasa, X.Davron she'riyatida dala obrazi ko`p uchraydi.

**20-mavzu: H.Xudoyberdiyeva, G.Begim she'riyatida ko`ngil obrazi.** Ko`ngil mavzusi she'riyatda alohida mavzulardan biri hisoblanadi. Unda lirik qahramon o`z tuyg`ularini oshkor gohida pinhon tasvir etadi. Kechinmadagi bu holat ko`ngil bilan bog`lanadi. Balki shuning uchundir shoirlar ko`p hollarda ko`ngil obraziga murojaat qiladilar.

**21-mavzu: B.Ro`zimuhammad, Faxriyor she'riyatida metafora.** Modern adabiyoti o`zbek she'riyatida juda mukammal adabiy oqimlardan biridir. Undagi tasvir rang-barangligi, shoir o`y xayolotiga cheksizlik berishi, metaforalar ramziylik kasb etishini alohida takidlash zarur.

**22-mavzu: A.Qutbiddin va Abdulla Sher she'riyatida tasavvuf g`oyalari.** Zamonaviy she'riyatda tasavvuf keyingi yillar badiiy ijodida ko`p murojaat qilinadigan tushunchalardan biridir. Tasavvuf juda murakkab, o`z aqidalariga hamda yo`nalishlariga ega qarash bo`lganligi uchun u zamonaviy she'riyatda keng ma'no kasb etadi.

**23-mavzu: X.Davron lirikasida tarixiy mavzular.** Tarixiy mavzu X.Davron she'riyatida ko`p uchraydi. Undagi tasvir poetikasi, ayni o`sha zamon voqeligini kitobxon ko`z o`ngida tasvirlash shoirning mahorati bilan bog`lanadi.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. O'zbek she'riyatida shakliy o'zgarishlar.
2. O'zbek adabiyotida sonet janrining ahamiyati.
3. Erkin she'r va o'zbek adabiyoti.
4. Xokku va o'zbek adabiyoti.
5. Nasriy she'r va o'zbek adabiyoti.
6. Modernizm va o'zbek she'riyati.
7. A. Oripov va E. Vohidov ijodida voqeband she'rning o'rni.
8. U. Azim va Sh. Rahmon she'riyatining janr xususiyatlari.
9. M. Yusuf va S. Sayyid she'riyatida Vatan mavzusi.
10. Faxriyor va R. Parfi ijodida sonet janri.
11. F. Afro'z, Z. Mirzo she'riyati xususida.
12. I. Mirzo va S. Ashur she'riyati xususida.
13. U. Hamdam, va B. Ro'zimuhammad ijodida modernism.
14. H. Xudoyberdiyeva A. Qutbiddin ijodi.
15. A. Suyun va M. Toir ijodi.
16. Go`zalbegim va Oydinniso ijodi janriy noan'anaviylik.
17. Lirikada makon xususiyatlari.
18. Lirikada vaqt masalasi.
19. Lirik qahramon va muallif badiiyati.
20. Lirikada poetik g`oya muammolari.
21. Zamonaviy she'riyatda o`lim va hayot motivlari.
22. She'riyatda metafizika.
23. Xurshid Davron she'riyati va Samarqand tasviri.
24. Lirikada so`z masalasi.
25. Hozirgi davr falsafiy she';riyati.
26. Keyingi davr yosh shoirlar ijodiga bir nazar.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O`zbek she'riyati janrlari tasnifi
2. Janr - badiiylik belgisi
3. Oybek she'riyatining tug`ilishida janrlarning o`rni
4. H. Olimjon she'riyatida janr
5. G`. G`ulom she'riyatida janr masalasi
6. Mirtemir she'riyatida sochmalar
7. E. Vohidov she'riyatida g`azal
8. Oripov she'riyatida oq she'r
9. M. Ali she'riyatida janr masalasi

| | |
|---|---|
| | 10. O. Matjon she'riyatida muxammas<br>11. I. G`afurov mansuralari<br>12. A. Suyun qayirmalari<br>13. R. Parfi ijodida modernizm<br>14. Sh. Rahmon she'riyatining janr tuzilishi<br>15. M. Yusuf she'riyatida xalqona ohanglar<br>16. A. Oripov to`rtliklari tahlili<br>17. A. Qutbiddin she'riyatida zamonaviylik<br>18. T. Murod nasrida she'riy ohangdorlik<br>19. F. Afro`z she'riyatida o`ziga xoslik<br>20. X.Davron she'riyatida hokku<br>21. Sh.Rahmon she'riyatida poetik g`oya<br>22. Abdulla Sher ijodida esxotologik makon ko`rinishlari<br>23. Shodmonqul Salom she'riyatida xalq og`zaki ijodi<br>24. Sheriyatda vaqt masalasi<br>25. Lirikada makon jihatlari<br>26. Faxriyor she'riyatida metafora<br>27. G.Begim, Oydinniso she'riyatida ramziylik<br>28. Lirikada metafizika<br>29. Zamonaviy she'riyatda o`lim va hayot motivlari<br>30. Nasriy she'rlar tahlili |
| 3. | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- "Zamonaviy she'riyat poetikasi" fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Mazkur fan filologiyaga oid boshqa fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o`z rivojida aniq yo`nalishdagi fanlar uchun zamin bo`lib xizmat qilish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish haqida tasavurga ega bo'lishi;<br>- She'riyat texnikasi va genezisi, XX-XXI asr lirikasi, hozirgi adabiy jarayon hamda shoirlarning adabiy merosi haqida bilimga ega bo'lish va ulardan foydalani olishi;<br>- talaba zamonaviy o'zbek she'riyati bo'yicha o'zbek shoirlari asarlari bilan tanishadi, ularning faoliyati xususidagi bilimga ega bo'ladi hamda asarlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• Ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar;<br>• tarqatma materiallar; ko'rgazmali qurollar;<br>• Kompyuter; Internet yangiliklari;<br>• muammoli ta'lim; qiyosiy tahlil. |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:** |

| | |
|---|---|
| | Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. S.Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2020.<br>2. U.Normatov. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2012.<br>3. S.Mirzayev. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2004<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>4. Azim Suyun. O'zlik. – T.: Sharq, 1999<br>5. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007<br>6. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007<br>7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T., 2004<br>**Axborot manbalari (saytlar):**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www. genhis philol.ru.<br>3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism<br>4. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html |
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti кengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul**:<br>D.B.Xursanov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi kata o`qituvchisi, filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>M.I.Davronova SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki)<br>G.H.Umurova – SamDCHTI professori, filologiya fanlari doktori (tashqi) |